



UDK:YŮK:808.55:81`342.9

Nilufar MAXAMADALIYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: asatova.n@gmail.com

TDU dosenti, PhD N.Hamidova taqrizi asosida

A STRATEGY OF BENEVOLENCE THAT HARMONIZES THE COMMUNICATIVE STRATEGY OF TOLERANCE IN POLITICAL DISCOURSE (BASED ON EXAMPLES IN UZBEK AND ENGLISH)

Annotation

In This article, the communicative strategy of tolerance is implemented through the use of strategies, tactics, and tools that harmonize communication at different levels of language and speech, and how it is used in conjunction with the strategy of benevolence, using the example of speeches by politicians and diplomats.

Key words: Political discourse, strategy of tolerance, strategy of benevolence, speech, politicians, diplomats, communication.

СТРАТЕГИЯ БЛАГОЖЕЛАТЕЛЬНОСТИ, ГАРМОНИЗИРУЮЩАЯ КОММУНИКАТИВНУЮ СТРАТЕГИЮ ТОЛЕРАНТНОСТИ В ПОЛИТИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ (НА ОСНОВЕ ПРИМЕРОВ НА УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ)

Аннотация

В данной статье коммуникативная стратегия толерантности реализуется посредством использования стратегий, тактик и инструментов, гармонизирующих коммуникацию на разных уровнях языка и речи, также как она используется совместно со стратегией благожелательности на примере речей политиков и дипломатов.

Ключевые слова: Политический дискурс, стратегия толерантности, стратегия доброжелательности, речь, политики, дипломаты, коммуникация.

SIYOSIY DISKURSDA TOLERANTLIK KOMMUNIKATIV STRATEGIYASINI UYG'UNLASHTIRUVCHI XAYRIXOHLIK STRATEGIYASI (O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI MISOLLAR ASOSIDA)

Annotatsiya

Mazkur maqolada tolerantlik kommunikativ strategiyasi til va nutqning turli darajalarida muloqotni uyg'unlashtiruvchi strategiyalar, taktikalar va vositalardan foydalanish orqali amalga oshirilishi va uning aynan xayrixohlik strategiyasi bilan birga qo'llanilishi siyosatchilar va diplomatlarning nutqlari misolida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Siyosiy diskurs, bag'rikenglik strategiyasi, xayrixohlik strategiyasi, nutq, siyosatchilar, diplomatlar, muloqot.

Kirish. Tadqiqotimizda siyosatchilar va BMT diplomatlarining nutqlariga xos bo'lgan muloqotda tolerantlik kommunikativ strategiyasini uyg'unlashtiradigan qo'yidagi strategiyalarini aniqladik: xayrixohlik strategiyasi, xolislik strategiyasi, sukut (tiyilib turish)strategiyasi.

Ushbu strategiyalar ma'ruzachiga muloqotda tolerantlikni ta'minlashga imkoniyat beradi. Ularni yordamchi strategiyalar guruhi sifatida tasniflash mumkin. Rus tilshunosi O.S.Issers tomonidan yaratilgan monografiyada ular "muloqot o'zaro ta'sirini samarali tashkil etish, qabul qiluvchiga optimal ta'sir qilish"[1] ga hissa qo'shadigan strategiyalar sifatida tushuniladi. Bundan tashqari, aniqlangan bu strategiyalar ko'pincha bir vaqtning o'zida o'zini namoyon qilish va obro'sizlantirish vazifalarini bajaradi. Belgilangan bu strategiyalarning ikki tomonlama tabiati ularni ritorik va qisman manipulyativ sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Bir tomondan, manipulyativlik tolerantlikning mafkuraviy tamoyillariga zid keladi, chunki u niyatlarning samimiyligi va xayrixohligini inkor etadi, ammo boshqa tomondan, tashqi taktikani saqlash zarurati diplomatning ajralmas kasbiy xususiyati deb ayta olamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O.S.Issersning monografiyasida ma'ruzachilar tomonidan ko'zda tutilgan "asosiy va ikkinchi darajali maqsadlarning ta'rifi"[2] asosida biz xayrixohlik strategiyasini amalga oshiradigan maqsadlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqamiz. Aniqlangan strategiyaning asosiy maqsadi – tolerantlikni ta'minlash va shu bilan birga salbiy hodisaning mavjudligini aytish, tanqidiy fikr bildirish yoki o'z pozitsiyasini ko'rsatish zarurati, ikkinchi darajali maqsad esa, birinchi o'rinda, vaziyatga qarab, o'zining yoki hamkorining obro'yini, hurmatini saqlab qolishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotimiz davomida siyosatchilar va BMT diplomatlarining o'ziga xos chiqishlarida xayrixohlik strategiyasining quyidagi usullari namoyon bo'ldi:

majburiy tanqid usuli, afsuslanish usuli, qat'iylikni pasayish usuli va sharhlash usuli. Berilgan usullarning pragmatik salohiyati nutq so'zlovchiga kommunikativ(muloqotlar) niyatini ya'ni o'z ichiga kelishmovchiliklar yoki noroziliklar bayonotini olgan bo'lsa tinglovchi bilan bo'lgan munosabatini xavf ostiga qo'ymagan holda amalga oshirishga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Xayrixohlik strategiyasi nutq so'zlovchi va qabul qiluvchi o'rtasidagi iliq munosabatlarni qo'llab quvvatlash uchun mo'ljallangandir. Uning o'ziga xosligi shundaki, yaxshi niyatlarning ta'kidlanishi, hamdardlikning namoyon bo'lishi, tanqidlarni gapirishni istamaslik, berilgan baholashlarni yumshoq tarzda ifodalash, ya'ni nutq so'zlovchining nutqni qabul qiluvchi shaxsga nisbatan ijobiy munosabatning turli xil ko'rinishdagi ifodalanishidir.

Afsuslanish usuli kelishmovchilik eki norozilikni ifodalashda afsuslanish, umidsizlik yoki xavotirlikni bildiruvchi leksemalar bilan ifodalanadi. Berilgan leksemalar nutq so'zlovchining tanqid qilinuvchi obyektga nisbatan his qilayotgan e'tiborini tanqid faktidan chalg'itib, hissiyotga o'tkazish imkonini beradi. Odatga ko'ra, nutq so'zlovchi hamdardlik, afsuslanish, xavotirlanish, tashvishlanish, umidsizlik kabi his-tuyg'ularga ishora qiladi. Yuqorida keltirilgan leksemalaridan foydalanish nutq so'zlovchining tanqidi sababli paydo bo'lgan istalmagan tajovuzkorlik ta'sirini kamaytiradi.

Davrimizning o'tkir muammolaridan yana biri — global iqlim o'zgarishlaridir. Bugungi kunda har bir mamlakat bu jarayonning salbiy ta'sirini his etmoqda. Ming afsuski, bunday o'zgarishlar Markaziy Osiyo taraqqiyotiga ham katta xavf tug'dirmoqda. (Prez.nutqi BMT 2020yil.)

But 2014 is not just a troubled and turbulent year. Regrettably, it is also a sign of things to come and a loud warning signal for us all to seriously heyed.(Ammo 2014 yil shunchaki bezovta va notinch yil emas. Afsuski, bu kelajakdagi narsalarning

belgisi va barchamiz jiddiy e'tibor berishimiz kerak bo'lgan baland ovozi ogohlantirish signalidir. Deputy Secretary-General's Opening Remarks for the Third Annual Global Humanitarian Policy Forum. 03 December 2014)

Majburiy tanqid usulining o'ziga xosligi shundaki, so'zlovchining o'z shaxsiy niyatida emas, balki sharoitdan kelib chiqqan holda tanqidlar qilishga majbur bo'lishidir. Natijada, so'zlovchiga o'z noroziligini ifodalash noqulay bo'layotgandek tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin, ammo obyektiv sabablar boshqa yo'l qoldirmayotganini qo'rsatadi. Shunday qilib, e'tiborni tanqid qilish faktidan uni tan olishni istamasligiga o'zgarishi e'tiborning aralashib ketishiga olib keladi. Shuningdek, so'zlovchining nazoratidan tashqarida bo'lgan, norozilik yoki kelishmovchilikni ifodalashni zarurati bo'lgan sharoitlarning mavjudligi ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Tahlil qilish natijasida siyosatchilar va diplomatlarining nutqida majburiy tanqid usulining uch xil shakli aniqlandi:

majburiylikni anglatadigan leksemalarning qo'llanishi:

Qanday og'ir bo'lmasin, tan olishimiz kerak, yurtimiz ravnaqi uchun eng zarur yo'nalishlar bo'yicha izlanuvchan, iste'dodli yosh kadrlarni chetda, rivojlangan davlatlarda o'qitishga majburlamiz. (Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir 08.12.2018)

Rozilik yoki ijobiy baholash imkoniyatini bermaydigan rad etuvchi konstruktivlar:

Biz muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatarga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon muros qila olmaymiz. (BMT Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyustiyasi — barqarorlik asosi 11.12.2021)

Ikkilamchi inkor(norozilik):

Shuni bilinglarki, sizlarning ota-onangiz, vataningiz bor. Davlat sizlarni hech qachon e'tiborsiz qoldirmaydi, - dedi Prezident. (Prezident Mehribonlik uyidagi sharoitlarni ko'zdan kechirdi 28.07.2021)

Majburiy tanqid usuli ingliz siyosatchilariga xos emas. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, umuman aytganda ingliz tili uchun ikkilamchi inkor qilish xarakterli hodisa hisoblanmaydi. Ingliz tilidagi Sintaktik gap tuzilishi nuqtai nazaridan va ko'pgina hollarda stilistik belgilashda ikkilamchi inkor qabul qilib bo'lmasligi aniqlangan.

Qa'tiylikni pasaytiruvchi usulda qa'tiylikni bayonotlarda kamaytirishning turli xil yo'llari ko'rsatilgan. Siyosatchilarning nutqlarida qa'tiylikni pasaytirishning zarurati diplomatik aloqalarning xususiyatlari tufayli kelib chiqqan bo'lib, ya'ni diplomatik muloqotlarda yarim ohangda gapirish xususiyati qa'tiy xukm qilishdan ko'ra afzal ko'riladi.

Professor M.A.Kormilistina boshchiligidagi yaratilgan «Problemi rechevoy kommunikatsii» 16-to'plamida bu haqida shunday deyiladi: "nutq so'zlovchiga qa'tiylikni pasaytirish imkoniyatini beradigan bir nechta vositalar mavjud bo'lib, ularda nutq so'zlovchi o'z qarashlarida adolat tuyg'usini saqlab qolish va qarama-qarshi fikrga hurmatda bo'lish munosabatini ko'rsatish imkonini beradi"[3].

Qa'tiylikni pasaytirishga holat yoki hodisaning miqyosini aniqlovchi ravish-deintenifikatorlar va boshqa leksemalardan foydalanish orqali erishish mumkin. Bunday leksemalarga umuman olganda, qisman, unchalik emas, uncha emas, nisbatan, etarli emas, on the whole(umuman), broadly(keng ma'noda), relatively(nisbatan) kiradi. Qa'tiylikni pasaytirilishini ifodalovchi bayonotlar nutq so'zlovchining nuqtai nazari tomonidan bo'lgan norozilik e'timolidan ogohlantiradi, chunki aniqlovchilar bir vaqtning o'zida u yoki boshqa tavsiflangan obyektning xususiyatlari mavjudligi yoki qisman yo'qligini ko'rsatadi.

«Ushbu ikki loyihaning amalga oshirilishi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash, o'zaro savdo va investitsiyalarni ko'paytirish, umuman olganda, Tashkilotimiz makonida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun keng imkoniyatlar ochadi», dedi Prezidentimiz. (O'zbekiston Prezidenti SHHT Davlat rahbarlari kengashining kengaytirilgan majlisida nutq so'zladi 16.09.2022)

For decades, despite terrible conflicts, geopolitical relations were relatively stable, based on alliances around the two

Cold War superpowers. (O'nlab yillar davomida dahshatli to'qnashuvlarga qaramay, geosiyosiy munosabatlar sovuq urush davridagiga qaraganda, ikki qudratli davlat ittifoqchiligiga nisbatan barqaror edi. UN Secretary-General's remarks to opening session of the Doha Forum. 10 December 2023)

Keyingi misolda qa'tiylikni pasaytirish holatini ifodalash uchun "cautiously"(ehtiyotkorlik bilan) ravishini qo'llash orqali erishiladi. Bu ravish orqali hisobotda, xulosa tayyorlash jarayonida to'liq bo'lmagan optimizmni ifodalash imkonini beradi.

As for the number of fighters, well there is an estimation that there are still 1,500 fighters of which probably 30 percent of them is Nusra. All these are figures that you have to take very cautiously because we are not inside the area. (Jangchilar soniga kelsak, hisobga ko'ra 1500 nafar jangchi bor, taxminan ularning 30 foizi Nusra guruxidir. Bularning barchasi juda ehtiyotkorlik bilan qabul qilishingiz kerak bo'lgan raqamlar, chunki biz hudud ichida emasmiz. Note to Correspondents: Transcript of press encounter by UN Special Envoy for Syria, Mr. Staffan de Mistura 13 December 2016)

Shuningdek, rus tilshunosi M.A.Kormilistina xuddi shu yuqoridagi manbaning o'zida "o'zining subyektivligini tasdiqlash ham qa'tiylikni pasaytirish holatining vositasi ham hisoblanadi." [4] deya ta'kidlaydi.

Rus olimasi T.A. Voronstovaning ta'kidlashicha, "subyektiv xarakterni baholash ko'rsatkichlari tolerant nutq hatti – harakatlari ko'rsatkichlari sifatida ko'rib chiqilishi mumkin." [5] "Nutq so'zlovchining suhbatdoshiga o'z fikrini majburiy singdirmasdan ifodalashi, boshqa fikrlarning ham bo'lishi mumkinligi yoki shaxsiy qarashlarning xato bo'lishi mumkinligini ham ko'rsatishi subyektivlikdan darak beradi." deyiladi manbalarda.

Siyosatchilar va BMT diplomatlarining chiqishlarida subyektivlik quyidagi vositalar orqali ifodalangan: bizning fikrimizcha, biz ko'rib turganimizdek, biz hisoblaymiz(biz hisoblamaymiz), bizga taqdim etilishicha, tahmin qilishimizcha, in our view, see, think, , (not) believe, , consider, view.

Bizning fikrimizcha, avvalambor, Tashkilotning blokarga qo'shilmaslik maqomini va uning ochiqchiligini saqlab qolish muhimdir. (O'z.R. prezidenti nutqi. Shanxay tashk. 16.09.22)

And we believe, we hope that, one day, we will have two states living in peace and security, side by side, both with Jerusalem as their capital. (Va biz ishonamiz, umid qilamizki, bir kun kelib bizda tinchlik va xavfsizlikda yonma-yon, poytaxti Quddus bo'lgan ikki davlat bo'ladi. Secretary-General's remarks at press encounter with H.E. Mr. Ahmed Aboul Gheit, Secretary-General of the League of Arab States 14 June 2019)

Norozilikni bayonot qilishda shartli moyillikdan foydalanish ham qa'tiylikni pasaytirish holatining vositasi hisoblanadi. tegishli tarzda, shartlarga murojat qilish vositasida, obyektga u yoki bu harakatni bajarishda xalakit bergan, tanqid orqali hosil bo'lgan ta'sirni shartli moyilik yumshatib bera oladi. Bundan tashqari, shartli moyillikdan foydalanish natijasi sifatida salbiy yo'nalishlarga murojat qilmaslikka olib keladi, buning oqibatida obyekt harakati inkor etilmaydi balki etarlik emas deb baholanadi.

Qoraqalpog'istonda yagona bo'lgan Taxiotosh issiqlik elektr stantsiyasi bundan 65 yil avval qurilgan bo'lib, hudud ehtiyojini qondirish uchun etarli emas edi. Shuning uchun ushbu stantsiya 680 million dollar evaziga modernizatsiya qilinib, 560 megavatt quvvatlar ishga tushirildi. (Yana bir muqobil energetika stantsiyasi qurilishi boshlandi. president.uz. 24.02.2022)

Sharhlash usuli matning mazmunini ayrim so'zlar, bayonotlar yoki ularga kiritilgan tushunchalar orqali izohlashga yo'naltirilgan. N.O.Parshinaning tadqiqot materiallariga ko'ra, "ushbu usulning nutq belgilari, qoidaga ko'ra refleksiv va kompozitsion tuzilish vazifasini bajaruvchi diskursiv so'zlardir." [6]

Ushbu tadqiqotda metatekst sharhini qarab chiqishimiz o'rindir, bu haqida rus tadqiqotchimiz O.T.Vepreva: "Unda so'zlovchi nutqda ishlatiladigan vositalarni o'zi analiz qilishidir, shuningdek bu matni bayon qilishda mualliflik subyektiv printipini boshlanishi sifatida qaralishi mumkinligidir." [7] deya izohlaydi. Boshqa tadqiqotchimiz T.V.Xarlamova esa

shunday deydi: “Metatekst sharhi tinglovchilar bilan aloqani yaxshilashga, soʻzlovchining fikrlash tarzini kengroq bayon qilishga, etqazilayotgan xabarga oʻz munosabatini bildirishga, ayrim xollarda esa tinglovchining salbiy munosabatini oldindan bilishga yordam beradi.[8] T.V.Dubrovskayaning fikricha, “qasddan biror soʻzni ishlatish yoki undan foydalanishdan qochish qabul qiluvchiga qulay sharoitni yaratadi.”[9]

Shuningdek T.V.Xarlamova oʻz dissertatsiyasida “BMT diplomatlarining nutqlarida metatekst sharhi subyektiv-modal metatekst tuzilmalari bilan ifodalanadi, bu maʼruzachining vaziyatini aks ettiradi va tinglovchi bilan aloqa oʻrnatishga moʻljallangan boʻladi.”[10] deya izohlaydi.

Ochiq tan olishimiz kerak, bizning eng jiddiy kamchiliklarimizdan biri – zamonaviy talablarga javob beradigan loyiha institutlarining yoʻqligidir.(Tanqidiy tahlil, qatʼiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak. <https://president.uz/uz/lists/view/187> 15.01.2017)

Let us be frank. This body has come under criticism from various quarters. For this Human Rights Council to fulfil its mandate, it must be seen as impartial, and fair. (Ochigʻini aytaylik. Bu organ turli tomonlarning tanqidiga uchradi. Ushbu inson huquqlari kengashi oʻz vakolatlarini bajarishi uchun xolis va adolatli deb bilishi kerak. Secretary-General’s remarks to the Human Rights Council. 25 January 2011)

Shunday qilib, BMT diplomatlarining nutqlarida xayrixohlik strategiyasi quyidagi usullar va ularni amalga oshirish vositalaridan iborat:

Afsuslanish usuli (afsuslanish leksemalarining qoʻllanishi, koʻngilsizliklar, tanqidni ifodalayotganda bezovtalik)

Majburiy tanqid usuli (majburlikni anglatuvchi leksemalarning qoʻllanishi; rad etish konstruktivlari: rozilik berishning yoki ijobiy baho berishning iloji yoʻqligini ifodalaydi; ikki tomonlama rad etish;)

Qaʼtiylikni pasaytirish usuli (intensivlik darajasini va bayonotlar aniqligini ifodalovchi leksemalardan foydalanish, subyektivlik belgilari, shartli mayil)

Sharxlash usuli (subyektiv-modal metatekstlarning tuzilmalari)

Xulosa va takliflar. Xullas, ushbu usullar siyosatchi va diplomatning samarali qobiliyatini ifodalaydi: qabul qiluvchining xarakatini tanqid qilib, bir vaqtning oʻzida nutqini shunday ifodalaydiki, sodir boʻlishi mumkin boʻlgan toʻqnashuvni oldini olib, qabul qiluvchini oʻzi tomonga agʻdarib oladi. Xayrixohlik strategiyasining manipulyativ taʼsiri hamkoriga nisbatan ataylab hamdardlik namoyishini, unga qiziqishini va yoqtirishini koʻrsatadi, hamkorida bular koʻngilsizlik sodir boʻlishini oldini olib, tanqidning konstruktiv idroki orqali qabul qilinishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR

1. Issers O.S. «kommunikativnie strategii i taktiki russkoy rechi» izd:M.:izdatelstvo LKI, 2008.106-bet
2. Issers O.S. «kommunikativnie strategii i taktiki russkoy rechi»izd:M.:izdatelstvo LKI, 2008.237-bet
3. Kormilistina M.A. «Problemi rechevoy kommunikastii» Saratov: Izd-vo Saratov 2016.96-bet
4. Kormilistina M.A. «Problemi rechevoy kommunikastii» Saratov: Izd-vo Saratov 2016.97-bet
5. Voronstova T. A., Kopilova T.A., T. R “Taktiki T.R. tolerantnosti v bitovom dialogicheskom diskurse” Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta. 2021. № 1 (447). Filologicheskie nauki. Vip. 123. 26—32betlar.
6. Parshina N.O «Strategiya uderjaniya vlasti v rechevom povedenii rossiyskix politicheskix liderov» vestnik agtu. 2005. № 5 (28).142-bet
7. Vepreva I.T. Verbalizatsiya metayazikovogo soznaniya kak realizatsiya prinstipa tolerantnosti // Filosofskie i lingvokulturologicheskie problemi tolerantnosti: Kollektivnaya monogr. - M. OLMA-PRESS, 2005.154-bet
8. Xarlamova T.V. Tekstobrazuyushie sredstva v ustnoy rechi: diss. .kand. filol. nauk / Saratov, 2000.241-bet.
9. Dubrovskaya T.V. Veylivost i neveylivost v russkom i angliyskom sudebnom dialogicheskom diskurse // Problemi rechevoy kommunikastii. - Saratov: 2008. - Vip.8.354-bet.
10. Xarlamova T.V. Tekstobrazuyushie sredstva v ustnoy rechi: diss. .kand. filol. nauk / Saratov, 2000.160-bet.